

FARZAND TUG'ILISHI VA TARBIYASI BILAN BOG'LIQ URF ODATLAR

Abdug'aniyev Shukurullo

Farg'ona Davlat Universiteti Tarix fakulteti Tarix yo'nalishi 3-bosqich talabasi

ARTICLE INFO.

Ключевые слова и фразы:

An'ana, urf-odat, Alla, to'y marosimi, beshik, azon, chilla, suyunchi, qalampirunchiq, ilm ahli, ismlar.

Аннотация

Mazkur maqolada dala yozuvlari asosida farzand tug'ilishi va tarbiyasi bilan bog'liq urf odatlar, an'analar misolida so'z yuritiladi.

<http://www.gospodarkainnowacje.pl/> © 2022 LWAB.

Xalqimizda “Bolalik uy bozor”degan ajoyib naql bor. Zero, inson umrining mazmuni hayotning mohiyati, avvalo, qobil farzandlar o'stirib ularning kamolini ko'rishda o'z ifodasini topadi. Mustaqilligimizning ma'naviy asosini tashkil etadigan milliy qadriyatlar tizimida bola tarbiyasi bilan aloqador marosim va udumlar alohida o'rin tutadi.

Ma'lumki insonning vatani, avvalo, beshikdan boshlanadi. Jigargo'shasiga qalb qo'rini baxsh etib, beshik tebratayotgan ona allasi orqali murg'ak bola ilk bor ona va vatan mehrini tuyadi. Xalqimizning ezgulikni ulug'lashga qaratilgan eng yaxshi an'analari beshik to'yi marosimida mujassamlashgan. An'anaga ko'ra o'zbeklarda beshik to'yi oilada tug'ilgan to'ng'ich farzandi sharafiga o'tkaziladi.

Qorong'u tunda bor dardlarini, alamalarini, xursandchiliklarini aytib hayotga yana yangi va boshqacha ko'z bilan boqishda davom etgan. Farzanga ism qoyayotganda chiroyli kitoblarda bor ismlarni qo'yish kerak. Ahli ilmlardan, yoki xonadonning yoshi ulug'laridan so'rab ism qo'yish tamoyili ham an'ana tusiga kirgan. Farzandni hayotda o'z o'rinini topishda ism muhim ro'l o'ynashi mumkin. Juma kunida tug'ilgan qizlarga Odina deb ism qo'yilgan, o'g'il farzandlarga esa Jumaboy, to'ylarda tug'ilganlarga To'ychivoy, safarda tug'ilganlarga esa Safarali, Yo'lchivoy deb ism qo'yanlar. Mehmonda tug'ilgan o'g'il farzandlarga Mehmonboy, qizlarga esa Mehmonoy deb ismlar qo'yilgan. Tavallud topgan bolaning qulog'iga ota bobolarimiz birinchi navbatda bir mulla chaqirib azon aytirganlar. Azon aytilganda bolaning qulog'i ochilgan. Odamlarni eshitish, tinglash qobiliyati ishlay boshlagan. Ismi ilk bor chaqaloqning o'z qulog'iga singdirilgan. So'ngra farzandning katta va kichik chillasi o'tkaziladi. Kichik chillada yigirma kungacha bolaning onasi, enagasi, momosidan bo'lak yoniga hech kim kiritilmaydi. Katta chilla esa qirq kun davomida bo'ladi.

Chillaning ma'nosi shuki, belgilangan muayyan muddat davomida xonadonga begona odam kiritilmaydi. Yangi dunyoga kelgan farzandni yomon ko'zdan, ins-jinslardan asrash, uni gigienik himoya qilish uchun shunday qilinadi.

Chilla qadimgi momolarimiz, buvilarimizdan qolgan muhim odatlardan biri hisoblanadi. Chilla farzandning voyaga yetishida muhim ahamiyat kasb etadi. Chillaning foydali tomonlari ko'p. Masalan, o'sha davr ichida xonadon toza va pokiza tutiladi. Bola har xil ins-jinslardan saqlanadi. Farzand qo'rqmay barkamol holatda voyaga yetadi. Zararli tomonlari ham yo'q deb bo'lmaydi. Chillaga haddan

tashqari e'tibor berish oqibatida, bora - bora irmga aylanib borayapti. Ya'ni ko'pchilik insonlar yangi odatlarni qo'shib, bugungi til bilan aytganda chillani kuchaytirib, dabdabali qilib yuborayapti. Bu esa chillaning qadimgi uslublarini surib chiqarayapti.

O'zbeklarning azaliy taomiliga ko'ra, farzand ko'rgan xonadon atrofida xursandchilik, shodiyonalik barq urib turadi. Bolalar, kattalar bir-birlariga suyunchi inom etadilar. Ushbu suyunchi xabarni kimda kim, u xoh katta yoshda, xoh kichik, bolaning otasiga yoki buvasi, buvisiga, tog'asi va boshqa qarindosh-urug'lariga yetkazsa qadimiy udumga ko'ra unday kishilarga qo'y, mol, nortuya, to'n, sarpo, pul va boshqa narsalarni suyunchi deb tortiq qilganlar. Shu narsa kishi e'tiborini o'ziga tortadiki, u yaxshi xabarni keltirgan kishilarga suyunchi inom etish udumi o'zbeklarda juda qadim zamonlardan buyon ma'lum bo'lgan.

Farzandni beshikka belashda farzandi bor ayollar ishtirok etgan, ular yaxshigina tajribaga ega bo'lgan. Beshikka bolani balo-qazolardan asrash uchun ko'zmunchoq, ko'proq qalampirmunchoqdan foydalanilgan. Beshikni ichiga ko'proq qalampir bilan piyozni aralastirib non qilib solib qo'yilgan. Yana, pichoq ham solingan. Tandirning qizil kessak joyidan olib, kuydirib, bolani badaniga chachtirilgan va paxta yog'ini qaynatib surkalgan, bu holat tuk chiqishini oldin olgan. Beshikdagi bolani tagiga sholi qipig'ini solishgan ekan. Bu holat dehqonchilik, ayniqsa, sholichilik rivojlangan joylarda ko'proq amalga oshirilgan. Farzandni ona emizishi uchun beshik ostonadan bir-ikki qarich yuqoriga o'rnatilgan. Farzand tinch uxlashi va orom olishi uchun alla aytilgan. Ona o'zining ichki kechinmalarini alla orqali namoyon etgan. Aqiqa so'zining ma'nosi - arabcha chaqaloqni sochini olish, qurbonlik qilish ma'nosini anglatadi. Aqiqa farzand dunyoga kelganidan yetti, o'n to'rt, yigirma bir kun vaqt o'tganidan keyin amalgam oshiriladi.

Aqiqaga so'yiladigan jonliq ko'p hollarda qo'y bo'ladi. Aqiqa go'shtini taqsimlash jarayoni quydagicha bo'ladi ya'ni aqiqa go'shtini pishirib yoki xomtalash holda xalqqa, beva bechoralarga, qo'ni qo'shinlarga tarqatsa ham bo'laveradi. Farzand o'gil bo'lsa ikkita qo'y so'yiladi qiz bola bo'lsa bitta qo'y jonliq qilinadi. Bitta qo'y so'yilishini sababi qiz bola ertaga turmushga chiqadi. Shuning uchun qiz bolaning ota onasiga yordam bo'lsin deb shunday yo'l tutiladi.

Tavallud topgan farzand birinchisi bo'lsa bozordan yangi beshik sotib olinadi. Ikkinchi yoki navbatdagisi bo'lsa, akasi yoki opasining beshigiga belanadi. Beshik bollar oyoqqa turguncha yashaydigan boshpana uyi hisoblandi. Shu kungacha zamonaviy xurofotchilar tomonidan zararli deb atalib kelgan beshik ajdodlarimiz kashfyotlari orasida alohida o'rin tutadi. Beshik to'yi qadimdan ota bobolarimizdan qolgan odatlardan biri hisoblanadi. Qadimda farzand dunyoga kelganida bozorga borib beshik olinib kamtarona 3-4 ta kishi chaqirilib o'tkazilgan. Bugungi kunda esa beshik to'yi dabdabali qilib o'tkazilyapti. Beshik to'yiga beshikdan tashqari har xil qimmat buyumlar olinib, bolaning enalari (ya'ni qiz tomon nazarda tutilyapti) ortiqcha pul (mablag') sarflanyapti. Oddiy bir beshik to'ylari orqali qudalar o'rtasida nizo kelib chiqayapti.

Albatta oilada farzand tug'ilishi xursandchilik bilan qilingan har qanday odat, urf, an'analar uni tarbiyasiga va sog'lom o'sishi uchun dono xalqimiz tomonidan tamoilga kiritilgan.

Farzand voyaga yetganidan so'ng, oila qurish kabi muqaddas ishni boshidan o'tkazadi. Dastlab, to'y marosimini boshlab beradigan marosim sovcilik bo'lib, sovcilar to'g'risidagi ilk ma'lumotlarni milodiy VII – VIII asrlarga oid O'rxun Enasoy bitiklarida uchramiz. Buyuk davlat arbobi To'niyquq (VII asr) bitik toshida "sav" kalimasi sabab, so'z, gap ma'nosida ishlatilgan. Irq bitigida esa "sab" – so'z, "sabrl" – xabar, so'z keltiruvchi ma'nosida ishlatilgan. Bu ma'nolardan ko'rinib turibdiki, muqaddas oila qurishga sabab bo'luvchi sovcilik marosimi uzoq - uzoq davrlarga borib taqalar ekan.

O'zbek xalqining uzoq tarixga ega,yana bir marosimi,yuqorida aytib o'tilgan beshik to'yi hisoblanadi.Beshik to'yi marosimi dastlabki farzand sharafiga juda ko'p insonlarni yig'ib o'tkaziladi. O'g'il bolaning to'yi 1-3-5 yoshlarida bo'lib o'tadi.i. Maqolaning asosiy manbasini, dala etnografik ma'lumotlari tashkil etadi. Dala etnografik ma'lumotlari suhbat va shaxsiy kuzatuvlar asosida to'plandi. Ushbu maqolaning tub mazmuni bo'lmish, farzand tug'ilishi, chilla marosimi, beshik to'yi,aqiqa marosimlari,dala amaliyotidagi materiallar va shu soha bilan shug'ullanuvchi yozuvchilarning asarlari orqali ham boyitilgan.

Foydalanigan adabiyotlar:

1. Jo'rayev Mamatqul.Oy oldida bir yulduz. G'ofur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti. T.: 2000. – B 3.
2. Mahmud Sattor. O'zbek udumlari. T.: Cho'lpon. nashriyoti. 2007.B-14
3. Ismoilov H. O'zbek to'ylari. T.: O'zbekiston nashriyoti. 1992.B 8
4. Dala yozuvlari. Ortiqova Malikaxon. 1942-yil Toshloq tumani Xonaqa mahallasida tug'ilgan. Millati o'zbek. 2021-yil 8-dekabrda yozib olindi.
5. O'rxun Enasoy bitiklari [3-78].
6. Dala yozuvlari. Qobulova Gulchehraxon. 1966-yil Toshloq tumaniga qarashli Xonqa mahallasida tug'ilgan. Millati o'zbek. 2022 -yil 13- avgustda yozib olingan.